

SINXRON TARJIMADA PSIXOLINGVISTIK OMILLAR

Boboqulova Sayyora Anvarovna*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi*boboqulovas08@gmail.com

+998947561204

Annotatsiya: Ushbu maqola sinxron tarjimaning tarixiy rivojlanishi, uning neyrolingvistik va kognitiv jarayonlarini aks ettirish uchun ishlab chiqilgan modellari, oldingi va hozirgi tadqiqotlarda o'rganilgan ba'zi asosiy masalalarga alohida e'tibor qaratadi. Sinxron tarjima – tarjima faoliyatini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri hisoblanib, u tarjimondan kuchli xotira va tezkorlik talab qilishi bilan tarjimaning boshqa turlaridan ajarialib turadi. Maqolada ushbu jarayonga yondashuvlar, psixolingvistika va sinxron tarjima o'rtasidagi bog'liqlik holatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, neyrolingvistik, kognitiv, yondashuvlar.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В СИНХРОННОМ ПЕРЕВОДЕ

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется историческому развитию синхронного перевода, моделям, разработанным для отражения его нейролингвистических и когнитивных процессов, а также ряду ключевых вопросов, рассматриваемых в предыдущих и современных исследованиях. Синхронный перевод считается одним из основных видов переводческой деятельности и отличается от других видов перевода высокими требованиями к памяти и скорости обработки информации со стороны переводчика. В статье также анализируются различные подходы к данному процессу и изучается взаимосвязь между психолингвистикой и механизмами синхронного перевода.

Ключевые слова: синхронный перевод, нейролингвистический, когнитивный, подходы

PSYCHOLINGUISTIC FACTORS IN SIMULTANEOUS INTERPRETING

Abstract: This article focuses on the historical development of simultaneous interpreting, the models designed to represent its neurolinguistic and cognitive processes, as well as several key issues examined in both previous and contemporary research. Simultaneous

interpreting is considered one of the primary modes of translation activity and is distinguished from other types of translation by the high demands it places on the interpreter’s memory capacity and processing speed. The article also explores various approaches to this process and examines the relationship between psycholinguistics and the mechanisms involved in simultaneous interpreting.

Keywords: *simultaneous interpreting, neurolinguistic, cognitive, approaches.*

Sinxron tajima dastlab Birinchi jahon urushi paytida qo‘llanila boshlagan boshlagan. O‘sha davrda fransuz tili xalqaro til hisoblanib, muhim uchrashuvlar Fransiyada bo‘lib o‘tgan. Shunga qaramay yuqori martabali amerika va britaniyalik shaxslar fransuz tilini bilmagan va shu sababli tajimon ko‘magiga muhtoj bo‘lgan. Ayniqsa, Nuremberg va Tokio sud jarayonlaridan so‘ng kanferensiya tarjimasi keng qo‘llaniladigan tarjima turiga aylandi. Ilk sinxron tarjima tajribasi 1928-yilda VI Komintem Kongressida bo‘lib o‘tgan. O‘sha davrda telefonlar yo‘q edi. So‘zlovchining nutqi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimonning quloqlariga yetib borar edi. Ilk kabina va naushniklar 1933-yil Kominternning ijro etuvchi 13-yalpi majlisida paydo bo‘lgan. Rossiyaning Moskva shahrida bo‘lgan bir guruh sinxron tarjimonlari Nuremberg sud jarayonlariga xizmat ko‘rsatuvchi konferensiya tarjimonlarining guruhini tuzdi va boshqalari Yaponiya urush jinoyatchilari ustidan bo‘lgan Tokio sud jarayonlarida qatnashdi. Ana shu dastlabki konferensiyalarda ishlagan tarjimonlar ilk sinxron tarjimonlar sifatida ish bajargan. Ular Chet tillar harbiy instituti (1942-yil Chet Tillari Moskva pedagogika Institutining Harbiy Departamentiga asoslangan holda tashkil qilingan)ning yosh bitiruvchilari edi. Ular u yerda harbiy yozma va og‘zaki tarjimonlar sifatida mashq qildirilgan. Tarjimonlarning mashq jarayonlarida Moskva universiteti va Falsafa instituti, shuningdek, Tashqi vazirlik a‘zolari va chet davlatlar bilan madaniy aloqalar jamiyati xodimlari qatnashganlar. 1952-yil Moskvada o‘tgan halqaro iqtisodiy konferensiya majlisida 50 ta sinxron tarjimon xizmat ko‘rsatgan. Konferensiya oltita - rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan va xitoy tillarida olib borilgan.¹⁰⁶

Boshqa manbalarda esa sinxron tarjima Edvard Filin va A. Gordon Finley tomonidan telefondan foydalanilgan holda “telefonda tarjima qilish” deb atalgan ilk bosqichni sinab ko‘rish orqali paydo bo‘la boshlagan deb ham ko‘rsatiladi. Shunga qadar ko‘p tilli tarjima asosan ketma-ket (consecutive) tarjima shaklida olib borilgan bo‘lib, bu usulda tarjimonlar nutq davomida o‘zlariga tushunarli bo‘lgan eslatmalar yoki har xil belgilarni yozib olish va so‘zlovchi nutqini tugatgach, uni boshqa bir tilda qayta tarjima qilish orqali bayon qilishgan.

¹⁰⁶ I.G ‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 168b.

Shunday qilib, sinxron tarjima jarayoni bir qancha olimlarning ilmiy izlanish olib borishiga sabab bo‘lgan: Xenri Barek (AQSH), D.Gerver (Angliya), I.A.Zimnaya (Rossiya) va boshqalar. 1960-1970-yillarda ba’zi ruhshunoslar va tilshunoslar tarjima aspektlari ustida tajribaviy tarjima darslariga qiziqib qolishdi va asosiy tilning har xil usullarda ifodalanishi, asliyat tilni qabul qilish, ma’lumot qabul qilingach boshqa tilga tarjima qilishga sarflangan vaqt va atrofda shovqin, nutqning ifodalanish paytidagi har xil to‘xtalishlar kabi kamchiliklar ustida izlanishlar olib borilgan.

Sinxron tarjima tinglash, tushunish, fikrni qayta ishlash va shu zahoti boshqa tilda ifodalash kabi jarayonlarni o‘z ichiga olganligi sababli bu jarayon inson miyasi uchun juda murakkab psixolingvistik faoliyat hisoblanadi. Sinxron tarjima jarayoni doimiy ravishda yuqori darajadagi psixik zo‘riqish va ba’zan asabiylashish holatlari bilan kechadi. Ushbu holatlarning ortib borishi tarjimon-sinxronist til ongining holatiga bevosita ta’sir etib, sinxron tarjimani ta’minlovchi kognitiv mexanizmlarning barqaror faoliyatini izdan chiqarishi mumkin. Mazkur omillar mazmuniga ko‘ra subyektiv va obyektiv xususiyatga ega bo‘lgan guruhlariga ajratiladi: subyektiv omillar – tarjimonning emotsional-ruhiy holati, professional tayyorgarlik darajasi hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlarga nisbatan individual munosabati kiradi. Obyektiv omillar esa nutq egasining talaffuz uslubi va nutq sur’ati, bayonning strukturaviy murakkabligi, qisqartmalar va maxsus terminlarning ko‘pligi, sinxron tarjima kabinasidagi texnik va sanitariya sharoitlari, shuningdek, nutqni audiovizual vositalar orqali taqdim etish bilan bog‘liq jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bunday murakkab sharoitda tarjimon-sinxronistdan o‘zgarib borayotgan kommunikativ vaziyatga tezkor va moslashuvchan reaksiya talab etiladi. Tarjimon faoliyatining asosiy vazifasi nutqning umumiy mazmunini yo‘nalishini saqlagan holda, imkon qadar adekvat va tushunarli tarjimani ta’minlashdan iborat bo‘ladi.

Shu sababli manba tildagi (MT) referent axborotni aniqlash va uni semantik jihatdan talqin qilishga ajratiladigan vaqt sezilarli darajada qisqaradi. Bu esa ko‘pincha tarjima tilida (TT) axborotning umumlashtirilgan, ixchamlashtirilgan yoki qisman qisqartirilgan shaklda ifodalanishiga olib keladi. Mazkur holat sinxron tarjimada mazmuniy va ifodaviy jihatdan qabul qilinadigan transformatsion qarorlar chegarasini aniqlash masalasini dolzarb ilmiy muammo sifatida kun tartibiga chiqaradi. Boshqacha so‘z bilan aytganda jarayon bir qancha pog‘onalardan o‘tadi va ularning eng asosiylari: moslashtirish, muqobilni toptirish, qaror qabul qilish va ijro etish. Psixolingvistik nuqtai nazardan kelib chiqib, eshitish va tushunish jarayoni tarjimon miyasida qanday yuz berishi turlicha talqin qilinadi. Quyida eng muqobil variant quyidagicha ifodalanadi:

- miyada fonetik tahlilning boshlanishi;
- so‘z ma’nosini anglash;

- gapning umumiy mazmunini aniqlash;
- yakuniy taqdim etish.

Bu kabi jarayonlarda tarjimonda kuchli xotiraga ega bo‘lish va diqqatni jamlash ko‘nikmasining yuqori darajada shakllanganligi katta yordam beradi. Mana shu nuqtada tarjimonning tarjima mahsuli nimaga tarjimon dasturlaridan ko‘ra afzalroq ekaniga aniq yechim topishimiz mumkin. Tarjimon asliyat tildagi fikrni so‘zma-so‘z emas, balki mazmun jihatdan anglaydi va ongida mantiqiy modelni hosil qiladi. Bu jarayon esa ma‘noning mosligini faqatgina inson onggi seza olishining yorqin dalilidir.

Fikrning nutqqa tayyorligi va uni ifoda etilishi jarayonida tarjimonning professional yakuniy natijasi yuzaga keladi, ya‘ni sinxron tarjimon asliyatdagi ortiqcha so‘z va iboralarni qisqartirib, faqat asosiy ma‘noni yetkazib beradi. Tadqiqotlar (Chernov, 2004; Gile, 2009) shuni ko‘rsatadiki, sinxron tarjimonlar semantik jihatdan asosan mazmunni qayta yaratishga, ya‘ni kommunikativ ekvivalentlikni saqlab qolishga harakat qiladilar, bu esa nutqni ixchamlashtirish hodisasini yuzaga keltiradi. Shu sababli sinxron tarjimon nafaqat bilimga, balki kognitiv tayyorgarlik, xotira hajmi va stressga bardoshlilik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Sinxron tarjimaning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri — vaqt resursining keskin cheklanganligidir. Ushbu omil salbiy stressogen yuklamalar kuchaygan sari tarjimon tomonidan qo‘llaniladigan transformatsion strategiyalar va yechimlar ko‘lamining kengayishiga olib keladi. Natijada tarjimon kognitiv tizimning uzluksiz ishlashini ta‘minlash maqsadida nutqni qayta ishlash jarayonlarini soddalashtirishga majbur bo‘ladi.

Sinxron tarjimaning kognitiv-dinamik konsepsiyasi ushbu tarjima turini o‘qitish texnologiyasining nazariy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tayyorlov metodikasi sinxron tarjimani ta‘minlovchi alohida kognitiv mexanizmlarni bosqichma-bosqich, elementar tarzda mashq qildirishdan boshlab, keyinchalik sinxron tarjima ko‘nikmalarini kompleks shaklda rivojlantirish tamoyili asosida qurilishi lozim. Sinxron tarjimaning va psixolingvistik asoslarning nazariy ahamiyati zamonaviy lingvistikada tarjimani o‘rganish tajribasining lingvistik, kommunikativ-pragmatik va kognitiv aspektlarda tanqidiy tahlil qilinishi va umumlashtirilishida, sinxron tarjimaning kognitiv-dinamik konsepsiyasiga oid fundamental qoidalarni nazariy hamda psixolingvistik eksperimental asosda isbotlab berilishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ba‘zi ilmiy ishlarda sinxron tarjimaning kognitiv apparati tuzilmasi ishlab chiqilganini va u kognitiv-dinamik model ko‘rinishida kompleks tavsiflanganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, sinxron tarjima jarayoni murakkab kognitiv-dinamik tizim hisoblanib, ushbu jarayonda stressogen omillarning tarjimon-sinxronist til ongining holati va kognitiv mexanizmlarning funksional faoliyatiga ko‘rsatadigan ta‘siri muhim hisoblanadi. Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar sinxron tarjima sharoitida vaqt tanqisligi va

yuqori psixoemotsional zo‘riqish tarjimon tomonidan qabul qilinadigan transformatsion strategiyalar diapazonining kengayishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga kognitiv-dinamik yondashuv doirasida sinxron tarjima jarayonida axborotni qayta ishlash mexanizmlarining moslashuvchanligi, mazmunning umumlashtirilishi va qisqartirilishi obyektiv zarurat sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Ushbu holat sinxron tarjimani faqat lingvistik faoliyat emas, balki murakkab kognitiv-psixologik jarayon sifatida baholash lozimligini yana bir marta tasdiqlaydi.

Maqolada ilgari surilgan nazariy xulosalar sinxron tarjimani o‘qitish va tarjimon-sinxronistlarni tayyorlash jarayonida kognitiv mexanizmlarni bosqichma-bosqich va kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali didaktik modelni ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, stressogen omillarning ta‘sirini hisobga olgan holda professional standartlarni takomillashtirish va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini optimallashtirish zarurligi aytib o‘tildi. Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot sinxron tarjima nazariyasini rivojlantirish, uning kognitiv va psixolingvistik asoslarini chuqurlashtirish hamda mazkur sohada olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy poydevor yaratadi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012.
2. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. *International Journal Of Literature And Languages*, 5(12), 86–89.
3. Moser, B. *Language Interpretation and Communication*. -New York/London: Plenum Press, 1978.
4. Mamarasulova, S. S. (2025). *Reklama tarjimasining ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari*. *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)*, 8(2),
5. Moser, B. *Simultaneous Interpretation: a Hypothetical Model and its Practical Application*. -New York/London: Plenum Press, 1978.
6. Paradis, M. *Toward a neurolinguistic theory of simultaneous translation: The framework*, *International Journal of Psycholinguistics*, 1994.
7. Балаганов Д.В Динамика когнитивных механизмов в синхронном переводе///дисс.а соиск. учен. ст. кандидата филол. наук. - М., 2002. - 203 с.